

## OGAHY SHE'RIYATIDA SAN'AT HAMDA BADIY BO'YOQDORLIK

**Berdiyev Choriyor Aliyarovich**

TDSHU Tarix(mamlakat va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi, 3-kurs,

+99899 023 97 05

berdiyevchoriyor@gmail.com

**Turdixojayeva M.M.**

Ilmiy rahbar: TDSHU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7645219>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning she'riyati hamda uning adabiyot olamida tutgan o'rne haqida ma'lumotlar berilgan. Muhammad Rizo Ogahiy turkiy tilda ko'p va xo'p ijod qilgan shoirlar orasida Alisher Navoiydan keyin turuvchi buyuk shoir, tarjimon, tarixchi olimdir. Ushbu maqolada ayni adabiyot olamida yuksak o'rin tutgan Muhammad Rizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" (oshiqlar tumori) devonidagi ayrim g'azallar tahlili hamda ularda ishlatilgan she'riy san'atlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: badiiy san'at vositasi, she'r, g'azal, shakl, tashbeh, talbeh, tazod.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy mumtoz o'zbek adabiyotining yirik namayondalaridan biri sifatida avvalo she'riyat, tarjimashunoslik, tarix sohasiga ulkan hissa qo'shgan adib hisoblanadi. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o'zidan avval o'tgan o'zbek shoirlar orasida eng salmoqli she'r aytgan degan bo'lsa, undan so'ng ushbu yo'nalishda Navoiydan keyin turadigan Muhammad Rizo Ogahiydek salmoqli asarlar qoldirgan adib kam bo'lsa kerak.

Ogahiy qalamiga mansub bo'lgan barcha she'rlar "Ta'viz ul-oshiqin" (oshiqlar tumori) deb atalgan devonda jam bo'lgan. Bu devon Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz talabi va taklifi bilan shoir tomonidan 1872-yilda tuzilgan. Ushbu devonga shoirning 20 ming misradan ziyod she'rlari kiritilgan bo'lib, shundan 1 300 ga yaqini forschada bitilgan. Ogahiy tomonidan yozilgan she'rlar orasida g'azal janri alohida o'rin egallaydi. Ogahiy g'azallari mavzusining dolzarbligi, adabiy bo'yoqdorligi, badiiy san'atlardan ustalik bilan foydalanganligi bilan alohida ajralib turadi. Shu asnoda g'azallardan bir necha baytlarni tahlil qilish yordamida Ogahiy uslubiyati bilan o'rtoqlashish mumkin.

Kuysa olam bo'ma hayron, o'tlig' afg'onimg'a boq,

O'tlig' afg'onim taajjub qilma, janonimg'a boq.

"Boq" radifli g'azaldan olingan ushbu baytda "kuysa olam" so'zi orqali tashbeh san'ati qo'llangan. Tashbeh<sup>1</sup>- arabchada o'xshatish degan ma'noni anglatadi. Endi ushbu bayt dastlabki misrasida ma'zmunan mubolag'a san'atining

<sup>1</sup> Orzibekov R., Lirikada kichik janrlar. T.,1976. 45-bet

ishlatilganligi guvohiga aylanamiz. Mubolag 'a<sup>2</sup>- ma'noni kuchaytirish hamda u amalga oshmaydigan darajada bo'rttirish demakdir. Shoir demoqchiki, agar olamning kuyganini ko 'rsang, unga hayron bo'lmagin, mening tortgan fig 'onim oldida olam kuyishi hech gapmas degan bo'rttirish aksini topgan desam adashmayman.

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,  
Satr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina...

"ustina" radifli g'azaldan olingan ushbu baytda esa talmeh<sup>3</sup> san'atining qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu san'at esa "Sulaymondek" so'zi orqali vujudga kelgan. Talmeh – baytda tarixiy yoki afsonaviy shaxslar va joy nomlarini qo 'llash san'atidir. Sulaymon alayhisalom<sup>4</sup> – Qur'oni Karimda nomi zikr etilgan payg 'ambarlardan biri. Bu zot alloh taolo tomonidan shamol hamda jinlar olami bo'ysindirib berilgan. Qo'lidagi uzuk orqali barcha hayvonlarning tilini tushunmoq nasib qilgan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki Sulaymon so'zidan yana bir she'riy san'at tashbeh san'ati vujudga kelgan. Bu san'at haqida yuqorida to'xtalib o'tdim.

Ogahiyning kichik she'riy janrlar; ruboiy, tuyuq, fard kabi shakllarda hambenzir ekanligining guvohiga aylanamiz. Ayniqsa, musoviyataraffayn (ikki tomonlama bir xil, teng) shaklida yozilgan she'ri adabiyotimiz tarixida juda kamdan kam uchraydigan hodisalardan biri deyishim mumkin. "Ta'viz ul-oshiqin"dagi ishqiy g'azallar nafaqat Ogahiy ijodining, balki butun o'zbek mumtoz adabiyotining sara namunalaridan hisoblanadi. " Yuzung ochkim, quyosh sadqang bo'lub boshingdan aylansin", "Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina" , " Ey, sho 'x, ko 'zi qoshinga olam gado, man ham gado" kabi g'azallari Ogahiyning yuksak badiiy mahoratini, chinakam san'atkor shoir ekanligining tasdig'i emasmi.

La'li birla obihayvonidin etsa Xizr<sup>5</sup> bahs,  
Onga yuz hujjat bila yetkurgusi ilzom xat.

Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytda ham talmeh san'atidan foydalanib o'tilgan. Ushbu san'at Xizr so'ziga bog 'langan. Xizr- musulmon e'tiqodiga ko 'ra, mangu tirik payg 'ambar. Mumtoz adabiyotda yo'ldan adashgan insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, yo'ldan adashganlarni qaytaruvchizot hisoblanadi.

Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,  
Bahra gar yo'qdir, Navoiyningni navosidin navo.

<sup>2</sup>O 'sha asar. 47-bet

<sup>3</sup>O 'sha asar. 49-bet

<sup>4</sup>Rahmatulloh qori Obidov., Payg 'ambarlar tarixi-islomiyat tarixidir. T., 2018. 345-bet

<sup>5</sup>O 'sha asar. 52-bet



Ogahiy shohbaytlari; donishmand, faylasuf insonning o'g'itlari, pand-nasihatlari bo'lib, yuksak badiiyat mahsulidir. Ogahiy she'riyatidagi deyarli barcha maqta'larni<sup>6</sup> "Husni maqta'"<sup>7</sup> deyish o'rinlidir.

Yuz uza ikki nargising vah, ne balo qaro dedim,  
Ko 'nglungu jonim olg 'uchi ikki qaro balo dedi.

"Dardi dilim ango dedim.. " g 'azalidan olingan ushbu baytda esa she'riyatda kam uchraydigan "tardi aks" san'atiga murajaat qilingan. Tardi aks-birinchi misradagi ishtirok etgan so 'z, keyingi misrada aksi holda takrorlanib keladigan she'riy san'at turidir. Ushbu baytda esa " balo qaro" hamda keyingi, misradagi "qaro balo" so 'zlari ishtirokida namoyon bo 'lgan.

Shuni izohlab o'tishni joiz bildimki, Ogahiy tuyuq janrida ham salmoqli ijod qilgan hisoblanadi. Avvalo tuyuq nima degan savolga javob izlab ko'ramiz? Tuyuq-turkiy xalqlar mumtoz she'riyatidagi lirik janr. Tuyuq 4 misrali she'r bo'lib, aruzning ramal bahrida yoziladi. -a,-a,-b, -a; ba'zan esa -a, -b, -v, -b tarzida va favqulodda hollarda esa -a,-a,-a,-a shaklida qofiyalanib keladi. Tuyuqda so 'z o 'yini sifatida shakldosh so 'zlardan foydalaniladi. Quyida Ogahiy qalamiga mansub tuyuq tahliliga to'xtalamiz.

G'am yuki to qomatim yo qilmadi,  
Ohim o'tig 'a falak yoqilmadi,  
Qilmadi rahmi manga, xud o'zgaga,  
Bilmadimkim qildimu yo qilmadi<sup>8</sup>.

Ushbu tuyuqning ilk misrasidagi "yo" arabchada bukulgan degan ma'noni anglatadi, shuning uchun dastlabki misrada "Yo" qilmadi<sup>9</sup> so'zi G'am mening qomatimni bukmadi degan ma'noda kelgan, ikkinchi misradagi Yoqilmadi so'zi esa yoqmoq ma'nosida qo'llangan bo'sa, to'rtinchi misradagi so'zning shakli sifatida ayiruv ko'makchilari ishtirokida yo qildi yoki qilmadi ma'nolarida ishlatilgan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Ogahiyning adabiyotga qo'shgan eng katta hissasi shuki, u mustazod<sup>10</sup> janrining qo'sh orttirma misrali yangi shaklini kashf etgan. Ogahiyning g 'azallari shashmaqomning hamma kuylariga tushadi.

Xulosa qilib aytganda Ogahiy she'riyati mavzu hamda ma'nolar xilma-xilligi, shuningdek, badiiy san'atlardan mohirona foydalangan holda badiiy bo'yoqdorlikni ifodalaydigan buyuk adabiy meros husoblanadi. Tazod, tanosub, tashxis, tajnis, talmeh, tajohuli orif, anafora, tardi aks kabi san'atlardan

<sup>6</sup> G'azal tugallanmasi maqta' deb ataladi

<sup>7</sup> Orzibekov R., Lirikada kichik janrlar., T., 1976. 461-bet

<sup>8</sup> Muhammad Rizo Erniyozbek o 'g 'li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik, I jild. T., G 'afur G 'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti., 1971.

<sup>9</sup> 6-sinf adabiyot darsligi.

<sup>10</sup> Mustazodda uzun misralar (14 va undan ortiq bo'g'inli) qisqa misralar (6 bo'g'inli) bilan almashtirib keladi.

foydalanganligi esa adib she'riyatiga o 'zgacha bir jilo, o'zgacha bir uyg 'unlik baxsh etadi desam mubolag'a bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ogahiy. Tanlangan asarlar., T., O'zbekiston davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, 1958.
2. Orzibekov R., Lirikada kichik janrlar., T., 1976.
3. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar.VI jildlik.I jild.T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti., 1971.
4. <https://ogahiy.tsuos.uz/adib-hayoti-va-ijodi/>
5. Rahmatulloh qori Obidov., Payg'ambarlar tarixi- islomiyat tarixidir.T., 2018.

